XALQ DEPUTATLARI BERUNIY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-5-021-13-182-K/24 Beruniy tumani

Beruniy tumanining 2025-yilgi mahalliy budjeti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2024-yil 26 dekabrdagi №26/II-son qaroriga muvofiq, tuman hokimining 2024-yil 20 noyabrdagi 2233-sonli taqdimnomasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6,24-moddalariga asoslanib xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qarg‘i Kengesining 2024-yil 26-dekabrdagi №26/II-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qarg‘i Kengesining 2024-yil 26-dekabrdagi №26/II-son qarori bilan Beruniy tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **126 180,5 mln.so‘m** va xarajatlari esa **126 180,5 mln.so‘m**ga ma‘lumot uchun qabul qilinganligi hamda Beruniy tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **877,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Mazkur qaror bilan:

- Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

- tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

- Beruniy tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq;

- 2024-yil Beruniy tumani mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi miqdori 4-ilovaga muvofiq; (Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.);

- Beruniy tumani mahalliy budjetining 2025-yil uchun yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq,

-Beruniy tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari va xarajatlari mablag‘larining miqdorlari 6-ilovaga muvofiq,

-tumandagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha eng kam miqdori 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to‘g‘risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 7-ilovaga muvofiq,

- tumandagi jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) eng kam miqdori 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to‘g‘risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 8-ilovaga muvofiq,

- ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatiga solishtirganda kiritilgan kamaytiruvchi koeffitsiyent miqdori 9-ilovaga muvofiq,

- yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda 1 kub metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 10-ilovaga muvofiq

- Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U. Matirzayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N. Yangibayev), tuman soliq inspeksiyasi (A.Abdalov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

7. Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabr kungi VI-77-119-13-182-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror tuman “Xalq minbari” gazetasida va tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinishi;

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi nazarda tutilgan.

Kengash raisi



XIDIROV IKRAM
TOREBAYEVICH

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Beruniy tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so'mda

t/r	DAROMADLAR TURLARI	JAMI
I	**JAMI SOLIQ VA YIG'IMLAR**	**126 180 474**
1	yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	
2	aylanmadan olinadigan soliq	8 277 388
3	jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	51 790 318
4	tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgalangan daromad solig'i	2 833 680
5	qo'shilgan qiymat solig'i	
6	aksiz solig'i, jami	
7	yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i	3 669 785
8	jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i	9 486 489
9	yuridik shaxslarning er solig'i	11 136 015
10	jismoniy shaxslarning yer solig'i	31 768 447
11	qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	3 950 070
12	suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, elektrastantsiyalardan tashqari	2 972 585
13	davlat boji	
14	jarimalar	
15	davlat mulkini ijarasidan tushumlar	295 697
	JAMI DAROMADLAR	**126 180 474**

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Beruniy tumani mahalliy budjetidan 2025-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.so'm

№	Ko'rsatkichlar	2025 yil
	I. Xarajatlar - jami	**126 180 474**
1	**Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi**	**38 632 517**
	shundan:	
	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini saqlash xarajatlari	21 112 420
	Maktab ta‘lim tashkilotlarini saqlash xarajatlari	13 246 820
	"Mening maktabim" loyihasi	4 273 277
2	**Sog‘liqni saqlash**	**0**
	shundan:	
	sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo'limi saqlash xarajatlari	
3	**Madaniyat bo'limi**	**6 228 232**
	shundan:	
	Madaniyat bo'limi saqlash xarajatlari	2 457 832
	Musiqa maktabi saqlash xarajatlari	3 770 400
4	**Axborot kutubxona markazi**	**830 137**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	830 137
5	**Sport bo'limi**	**6 721 600**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	6 721 600
6	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka bo‘limi**	**1 812 820**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	1 812 820
7	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi**	**1 101 163**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	1 101 163
8	**Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi**	**643 051**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	643 051
9	**Suv etkazib berish DM**	**5 156 162**
	shundan:	

	saqlash xarajatlari	5 156 162
10	**Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi**	**463 277**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	463 277
11	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**17 717 645**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	13 520 297
	ichki yo'llarini saqlash	4 197 348
12	**Iqtisodiyot va moliya bo'limi**	**2 541 078**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	2 541 078
13	**Hokimyat**	**9 945 074**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	9 737 108
	ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	10 824
	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	197 142
14	**Xalq deputatlari kengashi kotibyati**	**263 818**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	263 818
15	**Yoshlar ishlari agentligi**	**4 941 848**
	shundan:	
	saqlash xarajatlari	4 941 848
16	**Mahalla Uyushmasi**	**3 347 000**
	shundan:	
	mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasini shakllantirish xarajatlari	3 347 000
17	**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga**	**23 613 731**
18	**Zahira jamg'armasi**	**2 221 321**

Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetlariga ajratmalar me'yorlari

foiz hisobida

T/r	Shahar va tumanlar	Yuridik shaxsdan olinadigan foyda so'lig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i			Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan daromad solig'i (3 111800, 3111104, daromad kodlari)	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadiganqat'iy belgalangan solig'i	Aylanmadan olinadigan soliq	Alkagol mahsulotlari (aroq)	Aksiz solig'i, benzin, dizel yoqi'lg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslarning yer solig'i	
			Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar								Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar	Yirik soliq to'lovchilar	Hududiy soliq to'lovchilar
				QR Respublika budjeti	Shahar va tumanlar budjeti					QR Respublika budjeti	Shahar va tumanlar budjeti				
1	Beruniy tumani	0	0	30	70	100	100	100	0	100	0	0	100	0	100

davomi

Jismoniy shahslardan olinadigan moli-mulk solig'i	Jismoniy shahslardan olinadigan yer solig'i	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq (ruda materiallaridan tashqari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Jami Davlat boji	Jami Jarimalar	Yig'imlar	Shundan 3 422 203 kod yig'imlari	Geologik o'rganishlar uchun yer ostidan foydalanganlik uchun yillik letsenziya to'lovi (3 422 687)	Davlat mulkini Ijarasidan tushumlar	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan ajratma	Ko'chmas savdo ob'eketning auksion savdolari orqali o'tkazishdan olinadigan tushum		Boshqa tushumlar (3 450 603, 3 450 723, 3 450 725, 3 450 950, 3 450 951, 3 511 700, 3 511 112, 3 710 303 daromad kodlaridan tashqari)
											QR Respublika budjeti	Shahar va tumanlar budjeti	

100	100	100	100	0	0	0	100	15	100	0	50	50	0

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Beruniy tumani mahalliy byudjetining 2025 yil zaxira jamg'armasi miqdori

ming. so'mda

t/r	**Hudud nomi**	**Zaxira jamg'armalari**
1	Beruniy tumani	2 221 321

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Beruniy tumani mahalliy budjetida yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdorlari

ming so'mda

t/r	Hudud nomi	Miqdori
1	Beruniy tumani	877 000

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Beruniy tumani mahalliy budjetining 2025 yilgi daromadlari va xarajatlari mablag'larining miqdorlari

ming so'mda

t/r	Hudud nomi	Daromadlar jami	Xarajatlar jami
1	Beruniy tumani	126 180 474	126 180 474

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Beruniy tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha eng kam miqdori 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to‘g‘risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

T/r	OFY, MFYlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2025-yil uchun yer solig‘i stavkasi (ming.so‘mda)
1	A.Temur MFY	1,00	34 020
2	Abay OFY	0,70	23 814
3	Beruniy OFY	0,70	23 814
4	Biybazar OFY	0,70	23 814
5	Birlik MFY	0,90	30 618
6	Bunyodkor MFY	1,00	34 020
7	Bo'ston MFY	0,90	30 618
8	Guliston MFY	1,00	34 020
9	Do'stlik MFY	1,00	34 020
10	Do'stlik OFY	0,70	23 814
11	Jayxun MFY	1,00	34 020
12	Jumaniyazov MFY	0,90	30 618
13	Ibn-Sino MFY	0,90	30 618
14	Istiqlol MFY	0,90	30 618
15	Qangshartal MFY	0,70	23 814
16	Qizil kal'a OFY	0,70	23 814
17	Qiyat MFY	0,90	30 618
18	Lolazor MFY	0,90	30 618
19	Markaziy MFY	1,00	34 020
20	Maxtimkuli OFY	0,70	23 814
21	Mustaqillik MFY	0,70	23 814
22	Navoiy MFY	0,90	30 618
23	Navoiy OFY	0,90	30 618
24	Navro'z MFY	0,90	30 618
25	Nayman MFY	0,70	23 814
26	Obi-hayot MFY	1,00	34 020
27	Ozod OFY	0,70	23 814
28	Oltinsoy OFY	0,70	23 814
29	Palvash MFY	0,70	23 814
30	Paxtakor MFY	0,90	30 618
31	Sarkop OFY	0,90	30 618
32	Saroyko'l MFY	0,90	30 618
33	Tinchlik OFY	0,90	30 618
34	To'qiimachi MFY	1,00	34 020
35	Turon MFY	0,90	30 618
36	Xorazm MFY	1,00	34 020
37	Shabboz MFY	1,00	34 020
38	Shabboz OFY	0,90	30 618
39	Shimom OFY	0,90	30 618

40	Yangiobod MFY	0,90	30 618

Qo’shimcha: Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer soliqi stavkasining ovul va mahalla fuqarolar yig’inlari hamda ko’chalar kesimida ularning iqtisodiy jihatidan rivojlanishiga qarab 0,7 dan 3,0 ga qadar kamaytiruvchi hamda oshiruvchi koeffitsentlarining belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Beruniy tumanida jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) eng kam miqdori 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi kiritilishi to'g'risidagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

T/r	OFY, MFYlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2025-yil uchun yer solig'i stavkasi (so'mda)
1	A.Temur MFY	0,90	252,29
2	Abay OFY	0,70	196,22
3	Beruniy OFY	0,70	196,22
4	Biybazar OFY	0,70	196,22
5	Birlik MFY	0,90	252,29
6	Bunyodkor MFY	0,90	252,29
7	Bo'ston MFY	0,90	252,29
8	Guliston MFY	0,90	252,29
9	Do'stlik MFY	0,90	252,29
10	Do'stlik OFY	0,70	196,22
11	Jayxun MFY	0,90	252,29
12	Jumaniyazov MFY	0,70	196,22
13	Ibn-Sino MFY	0,70	196,22
14	Istiqlol MFY	0,90	252,29
15	Qangshartal MFY	0,70	196,22
16	Qizil kal'a OFY	0,70	196,22
17	Qiyat MFY	0,90	252,29
18	Lolazor MFY	0,90	252,29
19	Markaziy MFY	0,90	252,29
20	Maxtimkuli OFY	0,70	196,22
21	Mustaqillik MFY	0,70	196,22
22	Navoiy MFY	0,90	252,29
23	Navoiy OFY	0,70	196,22
24	Navro'z MFY	0,90	252,29
25	Nayman MFY	0,70	196,22
26	Obi-hayot MFY	0,90	252,29
27	Ozod OFY	0,70	196,22
28	Oltinsoy OFY	0,70	196,22
29	Palvash MFY	0,70	196,22
30	Paxtakor MFY	0,90	252,29
31	Sarkop OFY	0,70	196,22
32	Saroyko'l MFY	0,90	252,29
33	Tinchlik OFY	0,70	196,22
34	To'qimachi MFY	0,90	252,29
35	Turon MFY	0,70	196,22
36	Xorazm MFY	0,90	252,29
37	Shabboz MFY	0,90	252,29

38	Shabboz OFY	0,70	196,22
39	Shimom OFY	0,70	196,22
40	Yangiobod MFY	0,90	252,29

Qo’shimcha: Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer soliqi stavkasining ovul va mahalla fuqarolar yig’inlari hamda ko’chalar kesiminda ularning iqtisodiy jihatidan rivojlanishiga qarab 0,7 dan 3,0 ga qadar kamaytiruvchi hamda oshiruvchi koeffitsentlarining belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatiga solishtirganda kiritilgan kamaytiruvchi koeffitsiyent miqdori

T/r	**Tuman nomi**	**2025 yil uchun belgilangan soliq stavkasi**	**Koeffitsent miqdori**	**2025-yilda** ***(Yirik soliq to'lovchilardan tashqari) 1 kv. metr uchun belgilangan soliq stavkasi (ming so‘mda)***
1	Beruniy tumani	1300	0,74	965

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

so'mda

T/p	Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari	1 kub. metr uchun soliq stavkasi (so‘mda)		
		Koeffitsent (0,7 dan 1,5 gacha)	yer usti suv resurslari manbalari	yer osti suv resurslari manbalari
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, (bundan 2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,0	700	850
2	Sanoat korxonalari	1,0	700	850
3	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1,0	15 000	
4	Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	1,0	38 000	

Qo‘shimcha: Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan suv solig‘i stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyentini belgilash huquqiga ega (qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilar bundan mustasno)

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-021-13-182-K/24 -son qaroriga
11-ilova

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Koeffitsent (1,3 gacha)	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda, so‘mda
1	Noruda qurilish materiallari	1,3	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	4 600 so'm, biroq 6 000 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
2		1,3	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi**	5 000 so'm, biroq 6 500 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan

Qo‘shimcha: Xalq deputatlari tuman Kengashlariga noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkasini 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentini belgilash huquqiga ega.